



UDK:930.2

OCRID: 0009-0001-7877-3623

XORIJIY MAMLAKATLARDAGI IJTIMOIIY –SIYOSIIY VOQEALARNING “FARG‘ONA” GAZETASIDA YORITILISHI

Xamraqulov Serobjon Soliyevich

Qo‘qon DPI

Tarix kafedrasi katta o‘qituvchisi, (PhD)

serobjon1982@mail.ru +99894-558-72-44

Annotatsiya: Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonda o‘z siyosatini targ‘ib etish, jamoatchilik fikrini o‘z mafkurasi hamda g‘oyalari asosida shakllantirish maqsadida 1870-yilda rasmiy matbuotga asos solib, “Turkestanskije vedomosti” gazetasini chop eta boshladi. Shundan so‘ng o‘lkaning boshqa hududlarida ham rus imperiyasi ma‘muriyatining rasmiy gazetolari chop etila boshlandi. Shu bilan birga Turkistonning muhim markazlaridan bo‘lgan Farg‘ona viloyatida ham davriy matbuotning shakllanishi va bunga sabab bo‘lgan omillar, Farg‘onada mustamlaka davrida mahalliy tilda chop etilgan gazetalar haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, “Farg‘ona” gazetasining chop etilishi, uning o‘lka ijtimoiy hayotidagi taraqqiyparvarlik o‘rni va ushbu gazetada xorijiy mamlakatlardagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning yoritilishi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Farg‘ona viloyati, jadidlar, davriy matbuot, o‘zbek tilidagi gazetalar, xorijiy mamlakatlar, siyosiy jarayonlar.

ОСВЕЩЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКИХ СОБЫТИЙ ЗА РУБЕЖОМ В ГАЗЕТЕ «ФЕРГАНА»

Аннотация Чтобы сформировать свою политику в Туркестане Российской империей, в 1870 году Туркестанские Ведомости был запущен в 1870 году для формирования общественного мнения на основе его идеологии и идей.

После этого официальные газеты Российской империи также начались в других частях страны.

В то же время формирование периодических изданий и факторов, которые вызвали его в регионе Фергана, которые являются важными центрами Туркестана, рассказывают о газетах на местном языке. Газета “Фергана” также анализируется развитием газеты страны и ролью социальных и политических процессов в зарубежных странах.

Ключевые слова: Туркестан, Ферганская область, джадиды, периодическая печать, газеты на узбекском языке, зарубежные страны, политические процессы.

COVERAGE OF SOCIO-POLITICAL EVENTS IN FOREIGN COUNTRIES IN THE “FERGANA” NEWSPAPER

Annotation In order to form its policy in Turkestan by the Russian Empire, the Turkestanskies Vedomosti was launched in 1870 to form public opinion on the basis of his ideology and ideas. After that, the official newspapers of the Russian Empire also began in other parts of the country. At the same time, the formation of the periodicals and the factors that have caused it in Fergana region, which are important centers of Turkestan, talks about newspapers in the local language. The Fergana newspaper is also analyzed by the development of the newspaper of the country and the role of social and political processes in foreign countries.

Key words: Turkestan, Fergana region, Jadids, periodicals, newspapers in Uzbek language, foreign countries, political processes.

KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mustamlakaga aylantirilib, Rossiya imperiyasi uni iqtisodiy jihatdan yemirishga kirishdi. Mustamlakachilar turli usullar bilan yerli xalqni jaholatda, savodsizlikda, qashshoqlikda ushlab turishga harakat qildilar. Shuning bilan birga Rossiya imperiyasi o‘lkada o‘z siyosatini targ‘ib etish, ja-moatchilik fikrini o‘z mafkurasi hamda g‘oyalari asosida shakllantirish maqsadida 1870 yilda rasmiy matbuotga asos solib, “Turkestanskiye vedomosti” gazetasini chop eta boshladi [1,10 - 30]. Shundan so‘ng o‘lkaning boshqa hududlarida ham rus imperiyasi ma‘muriyatining rasmiy gazetalari chop etila boshlandi. Farg‘ona viloyatida ham ma‘muriyatning rus tilidagi gazetalari faoliyat yuritida [2,22-40], ammo mahalliy tildagi gazetalar yo‘q edi. Davr muarrixlarining ma‘lumotlariga qaraganda, Farg‘onada gazeta chop etishga bo‘lgan qiziqish 1911-12 yillardagi Turkiya – Italiya o‘rtasidagi urushdan boshlangan [3,2]. Muallifning ta’kidlashicha “...Bu urush to‘qtar – to‘qtamas Bolqon urushi boshlanib ketdi. Uning orqasidan jahon urushi, inqilob, o‘ktabr inqilobi: va ichki urushlar va hakoza ulashib ketabardi. Mana bu voqealarning hammasi tubjoy xalqni borg‘an sari gazeta o‘qushg‘a, dunyoda bo‘lub turg‘on gaplarni bilib turishga qiziqitirdi” [3,2]. Ko‘rinib turibdiki, dunyodagi voqea - hodisalarni bilishga bo‘lgan qiziqish gazeta chop etish yo‘lidagi muhim omillardan biri edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilsak, ularni uch guruhga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruhga – shu davr mualliflari tomonidan davriy matbuot tahlil etilgan maqolalarni ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bular sirasiga Abdulla Avloniy. (Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi // “Turkiston” gazetasi, 1924-yil 24-iyun), Gazetchi. Farg‘onada tub joy xalq matbuoti // «Farg‘ona» gazetasi. 1924-yil 5-may kiritishimiz mumkin.

Ikkinchi guruhga - sovet davrida chop etilgan ilmiy adabiyotlarni kiritish mumkin: Ziyov Said. (Tanlangan asarlar to‘plami. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at, 1974. - B 207.) Ernazarov T. E. (O‘zbekistonda vaqtli matbuot (1870-1924). T., 1959;) Ernazarov T.E. (Akbarov A. I., Istoriya pechati Turkestana (1870-1925). Uch. posobie, T.: O‘qituvchi, 1976;) Avsharova M.P. (Russkaya periodicheskoe pechat v Turkistane (1870 – 1917) Bibliograficheskoe ukazatel literaturi.) Ageev A.I. Latipova M.N. (Natsionalnaya periodicheskaya pechat uzbekistana (1917 – 1939) T:1947.) Ushbu adabiyotlarda milliy matbuotdan ko‘ra sovet matbuotiga ko‘proq urg‘u berilgan.

Uchunchi guruhga mustaqillik yillarida chop etilgan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Qosimov M. (Milliy uyg‘onish va o‘zbek filologiya masalalari - T.: Universitet, 1993;) Jalolov A., O‘zganboev H. (O‘zbek ma‘rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o‘rni. - T.: Fan, 1993.) Rajapova R. (Turkiston tarixi (1917–1993 yy.). - T.: O‘qituvchi, 1994;) (Turkestan a nachale XX veka: k istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti. Nauchnyy redaktor R.YA. Radjapova. - T.: Sharq. 2000;) A‘zamxo‘jaev S. (Turkiston muxtoriyati. - T.: Fan, 1996;) A‘zamxo‘jaev S (Turkiston muxtoriyati: milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. - T.: Ma‘naviyat. 2000.) Shadmonova S. (Turkiston tarixi – matbuot ko‘zgusida (1870–1917-yillar). - T.: Yangi nashr, 2011.), Mingnorov A. (Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning milliy matbuotda yoritilishi (1917–1918 yillar) // Toshkent: “Istiqlol nuri”, 2013.),

Rahmonov K. (“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalar – Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarixini o‘rganish manbasi.- T., 2009;) Tayronov YO. (Obshchestvenno-politicheskaya deyatelnost Turkestanskix predprinimateley v nachale XX veka. - T., 2011.) Ushbu tadqiqotlarda milliy matbuotimizning tarixi va uning o‘lkadagi taraqqiyparvarlik o‘rni ochib berilgan. SHuningdek ushbu tadqiqotlarda milliy matbuotimizning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ham ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

1914 yilga kelib Farg‘onada ham mahalliy (o‘zbek) tilida gazetalar chop etila boshlandi. Bular sirasiga “Sadoi Farg‘ona” [4,4], “Ravnaqul – islom” [5,40 - 44], “Xalq g‘ayrati”, “Tirik so‘z”, “El bayrog‘i” [6,18-19] larni kiritish mumkin. Turkistonda sovet hokimiyati o‘rnatilgach, bu Farg‘onada mahalliy tilda gazetalar chiqishiga to‘sqinlik qilmadi. Bu davrda ham Farg‘onada 1918-yilda “Farg‘ona ishchi dexqon qizil askar vakillari sho‘rosining axbori”, “Xalq gazetasi” [7,72] ni misol sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin. 1918-yil 8 iyuldan Farg‘ona viloyat milliy ishlar mudiriyatining noshirligida “Yangi Sharq” gazetasi chop etila boshlandi. 100 tacha soni chiqqandan so‘ng 1921-yil yanvarda o‘z faoliyatini to‘xtatadi. Farg‘ona viloyat firqa qo‘mitasi va viloyat ijroiya qo‘mitalarining markazi Farg‘ona shahridan Qo‘qonga ko‘chirilgach, “Yangi Sharq” gazetasi o‘rniga 1921-yil yanvar oyidan boshlab “Mehnat bayrog‘i” gazetasi chop etila boshlandi [7,74]. 1921-yil 25-mayda gazeta o‘z faoliyatini to‘xtatgach, shu yil 27-maydan boshlab uning o‘rniga “Farg‘ona” gazetasi chop etila boshlandi.

Gazeta faoliyatining rivojlanishiga va bu nomni olishiga “1922 yilning yoz oylarida Toshkanddan safarbarlik bilan keltirilgan o‘zbek talabalarining yordami bilan “Farg‘ona” ga aylantirilib, o‘zgachalashtirilgan” [3,2] ligi aytib o‘tilgan.

Gazetada dastlab xodimlar kamligidan muharrirlar tez – tez almashib turgan bo‘lsa-da, bu gazetaning rivojiga salbiy ta‘sir etmadi. Gazeta ishida Ashurali Zohiriy, Adham Rahmat, Mirzohid Oqiliy, Muxtor Muhammad, N.Ziyo o‘g‘li, Yunusxon xoji Og‘alif, Sayyid Sulton Sayyidali, Sulton Sakkizboy, Abdulla Karim, Ali Xo‘ja o‘g‘li va boshqa muxbirlarning fidokorona xizmatlari evaziga nashr yildan yilga yuksalib bordi.

1922 -1923 - yillarda gazetaning muxbirlari kam sonli bo‘lsa, keyingi yillarda mingdan ortib ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Gazeta adadining 800 dan 8000 gacha yetgani ham ushbu nashrning ommabop bo‘lganliginingisbotidir [7,75]. Gazeta haftada 3-marta, 4 sahifalik bo‘lib, chop etilgan va isloh qilingan imloda faoliyat ko‘rsatgan. Uning idorasi Qo‘qondagi 25-oktyabr ko‘chasida joylashgan edi.

“Farg‘ona” gazetasi sahifalaridagi o‘lka hayotiga oid ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy - ma‘rifiy maqolalar: “Hukumat boshqarmalarida”, “Qo‘qon qishloqlarida”, “Andijon qishloqlarida”, “Xotin-qizlar turmushidan”, “Matbuot”, “Adabiyot”, “Chig‘iriq”, “Cholg‘u va tomosha”, “Firqa ichida”, “Yoshlar orasida”, “Maorif ishlari”, “Yoshlar orasida”, “Maorif ishlari”, “Ilm – hikmat”, “Fan – texnika”, “Tuman muxbirlarimizdan”, “Qishloq”, “Ong – bilim ishlari”, “Paxtachilik ishlari”, “O‘lpon”, “Suv ishlari”, “Qo‘shchilar orasida”, “Poyezdlarning qatnashi”, “Qirg‘izistonda”, “Qiziq voqealar”, “Mayda millatlar”, “Turmush va mahsulot”, “Kaperatsiya ishlari”, “Undan – mundan”, “Shikoyat qutisi”, “Boshqarmaga xatlar”, “Boshqarmadan javoblar” kabi ruknlar ostida yoritib borilgan. Ushbu rukn xabarlar bilan birga gazetada xorijiy mamlakatlardagi voqea-hodisalar haqidagi xabarlar ham berib borilgan. “Farg‘ona” gazetasida xorijiy mamlakatlardagi xabarlar, asosan, dastlabki sonlarida “Chet ellarda”, “Sharq dunyosida”, “Sharqda” ruknlari ostida, keyinchalik “Yaqin sharq”, “Dunyoda nima gaplar”, “Biz va boshqalar” “So‘ng‘g‘i xabarlar” ruknlari qo‘shilib, bu ruknlarda ham yoritib borilgan.

“Farg‘ona” gazetasida berilgan xorijiy mamlakatlardagi xabarlarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

1. Ma‘lum bir voqea-hodisalar tahliliga bag‘ishlangan gazeta muxbirlarining maqolalari.
2. Rukn ostida berilgan xabarlar.
3. Xorijiy mamlakat gazetalaridan olingan xabarlar.

Gazeta chop etila boshlangan davrda Birinchi jahon urushi nihoyasiga yetgan, urushdan keyingi Yevropaning qudratli davlatlari tomonidan yangi mustamlakalarga ega bo‘lish, ushbu masalalarga bag‘ishlangan konferensiyalar o‘tkazilgan, Osiyo mamlakatlarida milliy istiqloqlilik harakati o‘sgan bir davr edi. Gazeta sahifalariga nazar tashlasak, bular haqida yetarlicha ma‘lumotlarga ega bo‘lamiz.

Ushbu davrda Yevropa mamlakatlarining Yaqin Sharq mamlakatlariga tajovuzi ortib ketgan edi. Bular haqda gazetada bir qancha maqolalar va xabarlar berib borilgan. Ushbu

maqolalarda Angliya hukumatining Yaqin Sharq mamlakatlarida olib borgan zo‘ravonlik siyosati ochib berilgan [8,1].

1922-1923-yillarda o‘tkazilgan Lozanna konferensiyasi⁴² ham gazeta sahifalarida yoritib borilgan[9]. Bu haqda matbuotda Lozanna konferensiyasida G‘arb davlatlarining Turkiyaga olib borgan noteng siyosati, Turkiya hukumati o‘ziga ittifoqchi sifatida Rusiya Sho‘rolar jumhuriyatini konferensiya ishida qatnashishini talab qilishi va bunga erishib, bu yerda katta tayanchga ega bo‘lishi, shuningdek, Turkiyaning g‘arb davlatlariga qarshi o‘z hududida Amerikaning “Chester” shirkatiga katta imtiyozlar berganligi, ammo Turkiyaga ittifoqchilikda Amerika va Sovet jumhuriyatlari o‘rtasida katta farq borligi yoritib berilgan. Konferensiya qarorlaridan birida Turkiyada yashayotgan rumliklar (xorijliklar) Yunonistonga ko‘chirilishi, Yunonistondagi turklar esa Turkiyaga ko‘chirilishi kelishilgan edi. Ushbu qarorning Turkiya xo‘jaligi uchun og‘ir bildirilganligi, ushbu tashkilot fikricha, bu masala butun dunyo musulmonlari tomonidan yechilishi lozimligi ungacha muvaqqat bir halifa tayinlab turish lozimligi, aytib o‘tilgan[12,2]. Fransiya hukumati esa taxtdan tushirilgan halifani o‘z yurtlariga taklif qilgan[12,2]. Bundan ko‘rinadiki, Fransiya hukumati ham halifadan o‘z siyosiy maqsadlarida foydalanmoqchi bo‘lgan. Shuningdek, Suriyada chop etiluvchi arab gazetalari Turkiya hukumati boshlig‘i Mustafo Kamol poshoni yakkahokimlikda ayblab, “...hukumat boshig‘a o‘lturub olg‘ondan keyin, islomg‘a qarshi kurash ochdi va sultonlar saroyini o‘zi egallamak uchun xalifani ag‘dardi” [13,1] deb o‘z fikr-mulohazalarini bildirgan. Bu masalada Fransiya va Angliya o‘zaro siyosiy qarama-qarshilikga kirishganligini ko‘rish mumkin. Fransiya yordami bilan Suriyadagi mahalliy kuchlar, taxtdan ag‘darilgan halifa Abdulmajiddan boshqa halifani halifa deb tan olmaslikni, Tunis, Marokash va Sovet Russiyasi kabi davlatlarda chiqqan soxta halifalarga ishonmaslikni targ‘ib etishib, pul yig‘ib halifaga yuborishgan. Ularning soxta halifa to‘g‘risidagi xavfsirashlariga sabab Angliya hukumati Sharif Husayn ismli kishini qo‘llab-quvvatlab, u uchun katta-katta pullarni sarflab, uning nomidan har xil maxfiy jamiyatlar tuzib, uni halifa deb e‘lon qilishga uringanligi gazeta sahifalarida yoritib o‘tilgan[13,1].

Gazeta sahifalarida Yevropa davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy voqealar yoritib berilgan. Angliya, Germaniya davlatlarida ro‘y bergan ijtimoiy - siyosiy jarayonlar keng yoritilgan bo‘lsa [14], [15], kichik davlatlardagi voqealar ruknlar ostida qisqa xabarlarda yoritib borilgan.

Gazeta sahifalarida Osiyo mamlakatlaridagi voqealar ham tahliliy maqolalar asosida yoritib borilgan.

Xususan, Xitoy, Hindiston, Eron kabi mamlakatlardagi voqealarga gazeta sahifalarida keng o‘rin berilgan[17],[18]. Xususan, Xitoydagi hukumat almashinuvlariga bag‘ishlab maxsus

⁴² Lozanna konferensiyasi - Yaqin Sharq masalalari bo‘yicha 1922-y. 20-noyabr- 1923-y. 24-iyulda bo‘lib o‘tgan konferensiya. Turkiya - Angliya- Gretsiya interventlariga qarshi urushda (1919-22) g‘alaba qozonganidan keyin o‘tkazilgan. Unda bir tomondan Turkiya, ikkinchi tomondan Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Gretsiya, Ruminiya, Yugoslaviya ishtirokida Lozanna tinchlik sulhi imzolandi (1923-y. 24-iyul), Turkiyaning hozirgi chegaralari belgilandi. Kapitulyatsiyalar rejimi va chet ellik fuqarolarning iqtisodiy va siyosiy imtiyozlari, Turkiya ustidan xalqaro moliyaviy nazorat bekor qilindi.

maqolalar berib borilgan[16]. Yaqin Sharq mamlakatlaridagi voqealar “Yaqin Sharq” ruknida atroflicha yoritib borilgan.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, davriy matbuot bu davrda

ommaning asosiy axborot manbalaridan biri bo‘lgan. O‘lka xalqlari faqat Farg‘ona va Turkiston haqida emas, balki olis xorijiy mamlakatlardagi voqealar haqida ham yetarlicha ma’lumotlarga ega bo‘lishgan.

Xorijiy mamlakatlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan voqiflik yerli xalqning siyosiy ongining o‘rishiga xizmat qilgan. Siyosiy ongning o‘rishi, albatta, o‘zlikni anglash va mustaqillik sari yo‘l ochgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кудинова О. М. “Туркестанские ведомости” - первая печатная газета в Средней Азии. – Т., 1982 .

2. Авшарова М.П. Русская периодическая печать в Туркестане (1870-1917) : библиогр. указ. лит. /;. – Т.: М-во культуры Узб. ССР, Гос. публич. б-ка им. А. Навои 1960.

3. Gazetchi. Farg‘onada tub joy xalq matbuoti /“Farg‘ona” / gazetasi. 1924-yil 5-may.

4. Abdulla Avloniy. Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi // “Turkiston” gazetasi, 1924-yil, 24-iyun

5. Cho‘lpon. Turkistonda matbuot //“Fuqaro fuyuzoti” (Boku, Ozarbayjon tilida) jurnal, 1920-yil, 1-son. Qayta nashri: “Davlat va jamiyat boshqaruvi” jurnali, 1998-yil, 2-son. (Tarjimon To‘lqin Tog‘ayev).

6. Mingnarov A. Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning milliy matbuotda yoritilishi (1917–1918-yillar) – T.: Istiqolol nuri, 2013 .

7. Ziyoy Said. Tanlangan asarlar to‘plami. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974.

8. F. Sulaymonov. Angliyaning sharqdagi muvaffaqiyatsizligi// “Farg‘ona”. 1921-yil, 4-sentyabr

9. “A”.//Luzon natijalari // “Farg‘ona”, 1923-yil 24-may, Kechikkan tasdiq// “Farg‘ona”, 1924-yil, 8-sentyabr; Luzon muohadasining ba’zi bir natijalari// “Farg‘ona”, 1924-yil 8-sentyabr; Luzon muohadasi Fransiya majlislarida// “Farg‘ona”, 1924-yil, 8-sentyabr.

10. Luzon muohadasining ba’zi bir natijalari// “Farg‘ona”, 1924-yil, 8-sentyabr

11. Kechikkan tasdiq// “Farg‘ona”, 1924-yil, 8-sentyabr

12. Xalifatning tarqalishi atrofida// “Farg‘ona”, 1924-yil, 25-mart

13. Xalifat tevaragida// “Farg‘ona”, 1924-yil, 17-aprel; Hijozda isyon// “Farg‘ona”, 1924-yil, 29-sentyabr.

14. Angliyaning qurolsizlanishi// “Farg‘ona”, 1924-yil 17-aprel; Angliya bilan qilgan muohadamiz// “Farg‘ona”, 1924-yil 15-sentyabr; Angliyada saylov munosabati bilan//

“Farg‘ona”, 1924-yil, 21-oktyabr; , Angliyada saylov marakasi// “Farg‘ona”, 1924-yil, 21-oktyabr; Turdiboy.To‘ralar hukumati// “Farg‘ona”, 1924-yil 19-noyabr;

Angliyada yangi ishchi hukumati//“Farg‘ona”, 1924-yil, 18-fevral.

15.Germaniyada ahvol// “Farg‘ona”, 1923-yil, 29-oktyabr; Germaniyada ahvol // Farg‘ona”,1923-yil, 10-dekabr; Germaniyada ahvol// “Farg‘ona”, 1924-yil, 17-yanvar; Berlindagi bosmachiliq tevaragida// “Farg‘ona”, 1924-yil, 15-may

16. Hitoyda katta voqealar// “Farg‘ona”, 1924-yil, 15-sentyabr; xitoy voqealari// “Farg‘ona”, 1924-yil, 29-sentyabr; Xitoyda ahvol//“Farg‘ona”, 1924-yil, 21-oktyabr; Turdiboy. Chin Mochin uyg‘on// “Farg‘ona”, 1924-yil, 1-noyabr;

17.Angliya Hindistonni siqadur// “Farg‘ona”,1924-yil, 19-noyabr

18.Eronda teskarichilar qo‘zg‘olishi// “Farg‘ona”,1924-yil, 25-sentyabr; Eronda // Farg‘ona”, 1924-yil, 17-aprel.